
SPORT SINOVLARI G'OLIBLARI...

Aholining jismoniy qobiliyat va harakat faolligini aniqlash maqsadida yurtimizning barcha tuman va shaharlarida 30-70 yosh va undan katta yoshdagi aholi hamda mahalla tizimi xodimlaridan ixtiyoriy va maxsus talablar bo'yicha Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari qabul qilindi.

Rishton tumani hokimligi, Sport bo'limi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi hamkorligida barcha mahallalarda 30-70 yosh va undan katta yoshdagi aholi hamda mahalla tizimi xodimlaridan ixtiyoriy va maxsus talablar bo'yicha "Jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlari qabul qilish" reja grafigi ishlab chiqildi.

Bugun tuman Madaniyat markazida ushbu jarayonlarda faol ishtirok etgan bir guruh fuqarolarni taqdirlash marosimi o'tkazildi. Unda tuman hokimi o'rinbosari Zarifjon Umarov, mutassadi rahbarlar ishtirok etishdi.

2024-10-15 16:11:42